



## O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA KIRITMALAR VA AJRATILGAN BO'LAKLARNING BERILISHI

**Davletova Shokhida Bazarbayevna**

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti*

e-mail: [shoxidadavletova0@gmail.com](mailto:shoxidadavletova0@gmail.com)

tel: +998995641028

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-4103-9983?lang=en>

UDK: 811.512.133'367:811.111'367:81'44

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tilarida berilgan kiritmalar va ajratilgan bo'laklarning sintaktik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Ushbu ikki tilda mazkur sintaktik birliklarning gap mazmun mohiyatini aniqlashtirish, to'ldirish va muallif munosabatini ifodalash jarayonidagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot ishida kiritmalar va ajratilgan bo'laklarning o'xshash va farqli xususiyatlari turli misollar asosida tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** sintaktik qurilma, kiritma, ajratilgan bo'lak, qiyosiy tilshunoslik, gap qurilishi, sintaktik birlik.

## УПОТРЕБЛЕНИЕ ВВОДНЫХ КОНСТРУКЦИЙ И ОБОСОБЛЕННЫХ ЧЛЕНОВ ПРЕДЛОЖЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

**Аннотация:** В данной статье будет проведен сравнительный анализ синтаксических особенностей включений и разделов, представленных на узбекском и английском языках. В этих двух языках освещается роль этих синтаксических единиц в процессе уточнения, дополнения и выражения авторского отношения к содержанию предложения. В исследовательской работе сходные и отличительные свойства включений и выделенных фрагментов анализируются на разных примерах.



**Ключевые слова:** синтаксическое устройство, ввод, выделенный фрагмент, сравнительная Лингвистика, построение предложения, синтаксическая единица.

## THE USE OF PARENTHETICAL CONSTRUCTIONS AND DETACHED SENTENCE ELEMENTS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

**Abstract:** This article provides a comparative analysis of the syntactic features of inclusions and sections in Uzbek and English. It highlights the role of these syntactic units in the process of clarifying, supplementing, and expressing the author's attitude towards the content of a sentence. The article analyzes the similarities and differences between inclusions and highlighted fragments using various examples.

**Keywords:** syntactic device, insertion, separated fragment, comparative linguistics, sentence construction, syntactic unit.

**Kirish.** Bugungi tilshunoslikda sintaktik birliklarning kommunikati va pragmatik imkoniyatlarini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tilning sintaktik qurilishida kiritma konstruksiyalar va ajratilgan bo'laklar muhim o'rin egallaydi. Ular gapda turli vazifalarni bajaradi ya'ni gapning asosiy mazmuniga qo'shimcha ma'lumot kiritadi, berilgan fikrni aniqlashtiradi yoki so'zlovchining munosabatini ifodalaydi. O'zbek tilshunosligida kiritmalar va ajratilgan bo'laklar sintaksisning mustaqil tadqiqot obyektlaridan biri sifatida qaraladi. Ingliz tilida esa ushbu hodisalar parenthetical constructions, detached constructions va appositive structures nomlari bilan o'rganiladi. O'zbek va ingliz tillarida mazkur birliklar shakl va vazifa jihatidan ayrim o'xshashliklarga ega bo'lsa-da, ularning grammatik ifodalanishida ma'lum farqlar ham mavjud. Shu jihatdan mazkur sintaktik hodisalarni qiyosiy tadqiq qilish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar sharhi.** O'zbek tilshunosligida kiritma konstruksiyalar va ajratilgan bo'laklar masalasini tilshunos olimlarimiz A.Нурмонов,





H.Маҳмудов va P.Сайфуллаевлар o'z ilmiy tadqiqot ishlarida o'rgangan bo'lsalar, ingliz tilshunosligida mashhur lingvistlar R.Quirk, S.Greenbaum, D.Biber va boshqa tadqiqotchilar mazkur masalalarni keng yoritib berganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada kiritmalar va ajratilgan bo'laklarning o'zbek va ingliz tillarida o'xshash va farqli jihatlari tuli misollar asosida yoritildi. Tadqiqot uchun zarur ma'lumotlarning ilmiy bayoni qiyosiy-tipologik, tavsifiy yo'l bilan berildi. Tadqiqot oldiga qo'yilgan asosiy muammoning aniq yechimi distribyutiv tahlil metodi va statistik usul orqali belgilab olindi.

**Natija va muhokama.** Kiritmalar gap mazmuniga nisbatan so'zlovchining munosabatini, ishonchini, taxminini yoki fikrning manbasini bildiruvchi sintaktik birliklar hisoblanadi, Ular odatda, gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan o'zaro bog'lanmaydi, gap bilan logik-semantik jihatdan munosabatga kirishadi va mustaqil sintaktik pozitsiyani egallaydi [1]. Kiritma gapning nisbiy mustaqilligi gap ohangidan ham ajralib turadi. Agar kiritma gaplar gap tarkibidan olib tashlansa ham, gapning asosiy mazmuni o'zgarmaydi. Kiritmalar fikrga qo'shimcha ma'lumot berib, asosan, gap o'rtasida keladi, va yozuvda doimo gapning boshqa qismlaridan qavs bilan ajratiladi:

*“O'tgan kunkar”(siz bu romanni o'qigansiz) o'zbek romanchiligi tarixida alohida o'rniga ega.*

Kiritma konstruksiyalar asosan dramatik turda qo'llaniladi. Dramatik turda asar qahramonining nutqi qanday tarzda bayon etilishi remarkalarda beriladi. Remaka - personaj nomi bilan uning nutqi orasidagi qavs bilan ajratiladi:

*Xon (Turib yuradur). Bir dushmanimning qoni qurimayin yana bittasi chiqib qoladur.*

*Domla (odamlarga qarab). O'qumak va mullo bo'lmak uchun pul kerak.*

Kiritmalarga taalluqli yana boshqa misollarni o'zbek va ingliz tillarida ko'rib chiqamiz:



*Nazarimda, bu masala yanada chuqurroq tadqiq etilishi kerak.*

*Demak, tajriba muvaffaqiyatli yakunlangan.*

*In my opinion, this issue requires further investigation.*

*Perhaps, the experiment needs additional verification.*

Yuqoridagi misollar shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda kiritmalar so'zlovchining subyektiv munosabatini ifodalashgan xizmat qiladi. Biroq ingliz tilida ular ko'proq maxsus kirish birikmalari yordamida ifodalanadi [2].

Ajratilgan bo'laklar gapning grammatik asosiy qismlaridan biri hisoblanadi va gapda ohang, tinish belgilari bilan ajratiladi. Ajratilgan bo'laklar sintaktik qurilmadagi ma'lum bo'lakning ma'nosini aniqlashtirish, izohlash yoki ta'kidlash vazifasini bajaradi. Ajratilgan bo'laklarni ikki xil usul bilan hosil qilish mumkin.

1. Gapda tartibni o'zgartirish orqali ajratilgan bo'lak hosil qilinadi.
2. Gapda izohlash orqali ajratilgan bo'lak hosil qilinadi.

Dastlab o'zbek tilida ajratilgan bo'laklarning gapda ishlatilishini misollar yordamida ko'rib chiqmiz. So'ngra ushbu misollarning ingliz tilidagi variantlarini tahlil qilamiz.

*Talabalar, ayniqsa birinchi kursdagilar, seminar ishida faol qatnashdilar.*

*O'qituvchi, tajribali mutaxassis sifatida, ilmiy loyihaga rahbarlik qildi.*

Mazkur keltirilgan misollarda ajratilgan bo'laklar gapdagi asosiy mazmunni to'ldirib kelmoqda.

*The students, especially first-year students, actively participated in the seminar.*

*The teacher, an experienced specialist, supervised the research project.*

Ingliz tilshunosligida bunday birliklar ko'pincha apposition yoki detached construction sifatida talqin qilinadi.

Ajratilgan bo'laklarning bir necha turlari mavjud bo'lib, ular ajratilgan aniqlovchilar, ajratilgan izohlovchilar, ajratilgan hollar, ajratilgan ega, ajratilgan kesim, ajratilgan qaratqich aniqlovchi va ajratilgan to'ldiruvchi nomlari bilan







yuritiladi. Ajratilgan bo'laklar birdan ortiq bo'lsa, boshqa bo'laklardan tire yordamida ajratiladi.

Quyida ajratilgan aniqlovchilar qatnashgan sintaktik qurilmalar keltiriladi.

*Yosh olim, ilmga chanqoq tadqiqotchi, xalqaro konferensiyada ma'ruza qildi.*

*The young scientist, an enthusiastic researcher, delivered a speech at the conference.*

Ajratilgan izohlovchilar va ajratilgan hollar gapda qo'llanilishi:

*Navoiy, buyuk mutafakkir, turiey adabiyot taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan.*

*William Shakespeare, the greatest English playwright, occupies a special place in world literature.*

*U, hech ikkilanmay, savolga javob berdi.*

*He, without hesitation, answered the question.*

Ajratilgan ega va ajratilgan kesim –bu ajratilgan bosh bo'laklar o'zlaridan oldin kelgan ega va kesimni izohlaydi.

*Men, Shalola Bekmetova, SamDUning 1-bosqich talabasiman.*

*Men uni ko'ndirishga harakat qildim – yalindim, yolvordim.*

*I am, Shalola Bekmetova, a first-year student at SamDU.*

*I tried to persuade him – beggad, pleaded.*

Ajratilgan qaratqich aniqlovchi va ajratilgan to'ldiruvchi quyidagi misollar orqali keltiriladi.

*Boyagi yigitning, Anvarning, qo'li gul ekan.*

*Sizga, o'rta bo'yli qizga, atlas juda yarashadi.*

*That guy, Anvar, is very skillful.*

*Atlas fabric looks very beautiful on you, a girl of medium height.*

O'zbek va igliz tillarida kiritmalar va ajratilgan bo'laklarning o'xshash va farqli jihatlari hamda funksional xususiyatlari tadqiq qilinib, quyida qiyosiy tahlil natijasida umumiyliklar aniqlandi:





1. Har ikkala tilda kiritmalar gapning sosiy mazmuniga qo'shimcha munosabat bildiradi.
2. Ajratilgan bo'laklar fikrni aniqlashtirish va izohlash vazifasini bajaradi.
3. Gap ichida intonatsion ajralish kuzatildi.
4. Vergul asosiy ajratuvchi tinish belgisi hisoblanadi.
5. Uslubiy ta'sirchanlikni kuchaytiradi.

Har ikkala tilda o'zaro farqli jihatlar ushbu tillarning tipologik xususiyatlari bilan bog'liq. O'zbek tili agglutinativ tillar guruhiga mansub bo'lganligi sababli o'zbek tilida so'z tartibi nisbatan erkin hisoblanadi. Ingliz tilida esa analitik tuzilish va qat'iy so'z tartibi mavjudligi sababli ajratilgan bo'laklarning joylashuvi o'zbek tiliga nisbatan cheklangan hisoblanadi [3]. O'zbek tilida sintaktik erkinlik yuqori bo'lgani uchun ajratigan birliklar turli pozitsiyalarda kelishi mumkin.

Kiritmalar va ajratilgan bo'laklarning qiyosiy o'rganilishi tarjima jarayonida muhim ahamiyatga ega. Kiritma konstruksiyalar va ajratilgan bo'laklarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish jarayonida ularning semantik va pragmatik vazifalarini saqlab qolish muhimdir.

*Afsuski, tadqiqot natijalari kutilganidek bo'lmadi.*

*Unfortunately, the research results were not as expected.*

Bu yerda "afsuski" va "unfortunately" bir xil pragmatik vazifani bajaradi.

**Xulosa.** Demak, o'zbek va ingliz tillarida kiritmalar hamda ajratilgan bo'laklar sintaktik jihatdan turlicha ifodalansa-da, kommunikativ vazifalari jihatidan o'xshashdir. Ular gapning mazmuniy salmog'ini oshiradi, fikrni aniqlashtirish va ta'sirchanligini kuchaytiradi hamda muallifning subyektiv munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Farqli jihatlar esa tillarning tipologik tabiati bilan belgilanadi. O'zbek tilida sintaktik erkinlik, intonatsiyaning ustuvorligi kuzatilsa, ingliz tilida punktuatsiya hamda qat'iy so'z tartibi muhim ahamiyat kasb etadi.



#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
2. Norbayeva, S. (2025, July). Xorazm shevalari leksikasidagi ayrim eskirgan soʻzlar tahlili. In *Conferences* (Vol. 1, No. 1).
3. Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. – London: Longman, 1985.
4. Norbayeva, S. (2026, July). Xorazm shevalari leksikasida substrat asosli birliklar: 10.52773/tsuull. conf. 2026.23. 05/EMTE8289. In *Conferences* (Vol. 1, No. 1).
5. Carter R., McCarthy M. Cambridge Grammar of English. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
6. Тошалиев И. Ҳозирги ўзбек адабий тилида киритма конструкциялар. – Тошкент: Фан, 1976.
7. Ғуломов А.Ғ, Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Тошкент: Ўқитувчи, 1965.
8. Исҳоков. Ҳозирги замон ўзбек тилида иловали конструкциялар// “Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари”, 2-китоб. – Тошкент, 1961.
9. Шоабдурахмонов Ш. Пунктуация қоидалари. –Тошкент, Ўқувпеддавнашр, 1953.